

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI.....	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

EDUCATIONAL SOURCES OF OGAHI'S VIEWS ON WORDS AND SPEECH

Babadjanova Nazokat

Doctor of Philosophy in Philological Sciences

Acting Associate Professor of the Uzbek Language and Literature Department of Tashkent State University of Law

E-mail: nazokat9000@gmail.com

Abstract. This article analyzes Muhammad Rizo Ogahiy's social views on the word, the educational sources of his views on language and speech issues, and the poet's skill in using words and demonstrating their various facets.

Keywords: ghazal, verse, couplet, lyric, kalom, kalima, artistic symbol.

OGAHINYING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI

Babadjanova Nazokat,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Toshkent davlat yuridik universiteti o'zbek tili va adabiyoti sho'basi v.b dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning so'z xususidagi ijtimoiy qarashlari, til va nutq masalalariga oid qarashlarining ma'rifiy manbalari, shoirning so'z qo'llash va uning turli qirralarini namoyon qilib, tovlantira olish mahorati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: g'azal, misra, bayt, lirika, kalom, kalima, badiiy timsol.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N20>

Kirish. Muhammad Rizo Ogahiyning so'z xususidagi ijtimoiy qarashlari uning lirik asarlarida goh didaktik, goh falsafiy tarzda bayon qilingan. Sharqda so'zni durga qiyoslash, uning qadrini benihoya baland tutish haqida ko'plab fikrlar bayon qilingan. Alisher Navoiy "Xamsat ul-mutahayyirin"da bayon qilgan bir bahs munosabati bilan Abdurahmon Jomiyning "Suhan dur astu tgalluq ba go'hi shah dorad" – so'z dur (bahs Hasan Dehlaviyning bir baytidagi so'z "dur" yoki "xun" – "qon" ekani haqida edi)dir va shoh qulog'iga tegishlidir, deb hakamlilik qilgani haqidagi hikoyat juda ibratlidir. [1; 15-16- b.] Sharq mumtoz adiblarining munosib izdoshi Muhammad Rizo Ogahiy lirikasida ham "so'z durri" xususida badiiy timsollar vositasidagi chuqur ijtimoiy fikrlari ko'p uchraydi. Jumladan:

Nazokat maxzanida og'zidur durju adam, lekin

Socharda so'z durini qilg'usi oni namoyon lab. [2; 99- b.]

Shoir nazdida so'zning durligi yor og'zini (qimmatbaho gavharlar solinadigan quticha)ga aylantiradi. Inson ko'ngli nazokat maxzani (xazinasi) bo'lishi uchun fikri ezgu, so'zi dur bo'lmog'i lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ogahiy soʻz, soʻzning qudrati, nutq odobi haqidagi fikrlarini soʻz tushunchasining turli sinonimlari, tasviriy ifodalaridan foydalangan holda bayon qiladi. Jumladan, “hadis” soʻzi Ogahiy asarlarida salaf mumtoz adiblar tilida anglatgan maʼnolariga muvofiq ishlatilgan: [3; 759- b.]

Gar desa lutfaylabon ul nozanin dilbar hadis,

Yuz oʻlukni tirgizur chiqqach labidin har hadis. (132-bet).

Oshiqona ohangdagi ushbu gʻazal maqtasida shoir gʻoyat muhim ijtimoiy fikrni ham bayon qilgan:

Sof tabʼ elning soʻzi koʻproq koʻngillarni olur

Kim muyassar boʻlgʻusi gar pok esa masdar hadis.

Shoir aqidasi koʻngildan chiqqan soʻzning borar manzili ham koʻngildir. Agar soʻzning masdari – yoʻnalgan oʻrni, yaʼni koʻngil pok boʻlsagina, koʻpchilik koʻngillarni ola oladi. Boshqacha qilib aytganda, soʻzning umri masdari naqadar pokligiga bogʻliqdir. Bu misralar goʻyo mumtoz adiblarimizning ijodiyoti, umrboqiy sirlarini ochib beradi. Ogahiy nazarida soʻz qimmatini anglash uchun insonga pokiza fikr va tabiat bilan birga kuchli ilmiy salohiyat, teran tafakkur zarur:

Ogahiy soʻzin musallam tutmasa hosil netong,

Yoqmagʻay bu jahlgʻa gar desa paygʻambar hadis.

Bizningcha, baytdagi “hosil” soʻzini “hassod” (hasad qiluvchi), “bu jahl”ni esa Bu Jahl (islom tarixidan maʼlum Abu Jahl) tarzida oʻqigan maʼqul. Ana shundan misra mazmuni yanada teranlashadi: 1. Abu Jahlgʻa Paygʻambar (s.a.v.) hadis aytsa ham yoqmaydi. 2. Nodonligi (jahlnodonlik) uchiga chiqqan (“abu” soʻzining qoʻshma soʻz yasashda vazifasini nazarda tutgan holda) odamga paygʻambar soʻz aytsa ham yoqmaydi.

Muhammad Rizo Ogahiyning til va nutq masalalariga oid qarashlarining maʼrifiy manbalariga nazar solar ekanmiz, eng avvalo, uning bu boradagi dunyoqarashi shakllanishida dastlabki manba vazifasini xalq ogʻzaki poetik ijodi bajarganini qayd etish kerak. Chunki, har qanday dahoning dunyoqarashi oʻz xalqining dunyoqarashi, maʼnaviy boyligi, tafakkur tarzidan kuch olishi tabiiy. Shu sababli ham Ogahiyning til, nutq, nutq odobi, til odobi, til ofatlari xususida bildirgan fikrlari xalqimizning yuksak badiiy didi mahsuli boʻlgan maqol, rivoyat, qoʻshiqlar mazmuniga mos kelishi tabiiydir. Shoirning bu boradagi dunyoqarashi shakllanishi va rivojlanishida ikkinchi asosiy maʼrifiy manba sifatida salaf – oʻzidan oldin yashab ijod etgan adiblarning mazkur masalada bildirgan mulohazalari hisoblanadi. Shoir Maqtanazar Abdulhakim “Ogahiy ijodi teran bir ummon. U koʻplab daryolardan bahravaridir” – deb toʻgʻri taʼkidlagan edi. [4; 99- b.] Shu maʼnodan ulugʻ soʻz sanʼatkorining ijodiga eng barakali taʼsir Alisher Navoiy merosi orqali boʻlgani shubhasizdir. Buni Ogahiy qalamiga mansub mavzuga doir bir necha baytlarni Alisher Navoiyning turli asarlarida uchraydigan soʻz, nutq masalasiga oid sheʼriy va nasriy satrlarini qiyoslash orqali ham koʻrishimiz mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni ikkinchi bobi soʻz masalasiga bagʻishlangan. Dostonning 14-bobi “Soʻz taʼrifidakim...” – deb boshlanadi.

Jonni ishqung domigʻa band aylabon, ozod qil-

Kim, havo zanjirini nafs aylamish mahkam ango...

Koʻngluma yetkur safo bazmi haqiqat jomidin,

Kim majoz ichra kudratlar yetkurmish gʻam ango...

***Til so'zi behudago'ylik sarfi bo'ldi umrlar,
Emdi afzun ayla zikring shaqini har dam ango...
Masih nutqimu o'lgan tanimg'a jon bergan,
Va yo labi aro guftormu ekan oyo...
Bog'ishlog'an so'z ila xasta jonga yuz lazzat,
Ul oyg'a la'li shakarbormu ekan oyo...
Dami jahon g'amidin forig' o'lmadim, yo Rab,
Tarahhum aylabon ondin yetur farog' mango...
Boqib ulus yuzig'a hashv so'z eshitmakdin
Hamisha ko'ru kar etgil ko'zu qulog' mango...
Mudom behud etib bodayi xayolingdin,
Hazin ko'ngulni biror lahza qo'yma sog' mango...
Ruhparvar so'zmudur la'lin taharrukka solur,
Yo nasimi ravzadindur mavj kavsar ustida...
La'lining ochchig' so'zi zahri halokim qildi daf',
Go'yiyo jon shahdidur mamzuj bu taryoq aro...
Fitnaparvar ko'zlaringg'a sho'ri mashhur sadqadur,
Gavhar afshon so'zlaringg'a javhari jondur fido...***

Ogahiyning til va nutq masalalariga oid mulohazalari uning nafaqat ma'rifiy qarashlari, balki ijtimoiy-siyosiy, falsafiy dunyoqarashini o'rganishda ham muhimdir. Jumladan, quyidagi baytda “shoiri dono davron” inson umrini behuda o'tkazmasligi, inson manfaatiga xizmat qiladigan ishlar bilan band bo'lishi, Haq zikri bilan mashg'ul bo'lishi haqidagi g'oyasini ifodalaydi:

***Til so'zi behudago'ylik sarfi bo'ldi umrlar.
Emdi afzun ayla zikring shavqini har dam ango.***

Baytda qo'llanilgan behudago'ylik aynan “behuda so'zlar aytish” ma'nosini anglatganda ham, uning tub mazmuni “behuda ish”, “insonga manfaat yetkazmaydigan amal”dir. Shoir bir qadar achchiq, bir qadar istehzoli bu fikrini mumtoz adiblar an'anasiga ko'ra o'ziga muxotaban, ya'ni o'ziga qarata aytadi. Bu holat mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodida ko'plab kuzatilib, ayni paytda aytilayotgan fikrning ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy mulohazalarning naqadar muhimligini ham ko'rsatadi. Qolaversa, yuqoridagi bayt mazmuni Ogahiyning Navoiy g'azaliga bog'langan bir muxammasidagi:

***Ne bo'la oldim g'ami uqbo saranjomi bila,
Ne farah topdim jahon sahboyi gulfomi bila.
Ish mango kun-tun ulus ta'zimu ikromi bila,
Vahki, umrum o'ldi zoye' barcha el qomi bila,
Bodai nob o'rnig'a xunoba oshomi bila*** – bandini ham eslatadi.

Ogahiyning so'z xususidagi ilmiy qarashlari uning ma'rifiy pozitsiyasi bayoni, didaktikasi bilan uyg'unlashib ketadi. Shoir inson manfaatlariga, uning ruhiy kamoliga xizmat

qilmaydigan soʻzni xashv soʻz (aynan ichi boʻsh, kovak soʻz – behuda soʻz) hisoblaydi. Hatto, Yaratganga iltijo qilib, odamlarning yuziga qarab, ulardan bunday soʻzlarni eshitmaslik uchun koʻzlarini koʻr, quloqlarini kar qilib qoʻyishini, yaʼni bunday odamlar bilan hamsuhbat boʻlish va soʻzlarini eshitish azobidan butkul qutqarishini soʻraydi:

***Boqib ulus yuzigʻa xashv soʻz eshitmakdin,
Hamisha koʻru kar etgil koʻzu qulogʻ mango.***

Mumtoz oʻzbek adiblari tilida soʻz shaklida ikkita soʻz boʻlib, biri genetik jihatdan asl turkiy boʻlib, hozirgi oʻzbek adabiy tili va shevalarida keng isteʼmolda boʻlgan soʻz; nutq; gap; sheʼr; fikr kabi koʻplab maʼnolarga ega. Qadimgi turkiy bitiklarda sab shaklida boʻlib, uning nutq maʼnosi ham koʻzga tashlangan. [5; 45- b.] “Kultegin” bitiktoshining quyidagi oʻrnida “sab”ning maslahat, umumiy mazmundan kelib chiqqan holda esa “vasiyat” maʼnosida ham anglash mumkin boʻladi: “Soʻzimni tugal eshitgil, keyinimdagi xalqim, oʻgʻillarim, ittifoq, urugʻ, oʻngdagi shadapit beklar, chapdagi tarxonlar, uyruq beklar”. [6; 89- b.] Demakki, sab // soʻz soʻzi hozirgi koʻchma maʼnolarining koʻpchiligini qadimgi turkiy davridayoq kasb etgan.

Soʻzning Ogahiy ijodidagi maʼno qirralari xususida gapirishdan oldin shu shakldagi ikkinchi bir soʻz haqida aytib oʻtsak. Soʻz shaklidagi ikkinchi soʻz kelib chiqishi boʻyicha forsiy boʻlib, aslida suxtan – yonmoq, kuymoq feʼlining hozirgi zamon negizidir.[7; 379- b.] Soʻzning ayni shu maʼnosi Xorazm shevalarida mavjud xomsoʻz (xom pishgan) soʻzida koʻrinadi. Mumtoz oʻzbek adiblari tilida, shuningdek, dilsoʻz (yurakni yoquvchi), jahonsoʻz (jahonni kuydiruvchi) kabi kalimalar mavjud. Masalan, Ogahiy:

***Ogahiy, dilsoʻz nazmingni eshitsa ahli ishq,
Boʻynigʻa taʼvizdek aylarlar ashʻoringni band.***

Yoki Fuzuliydan:

***Yondurub jonim jahonsoʻz etma barqi ohimi,
Osmon, xurshidi raxshoning kerakmazmu sango.***

Soʻz mumtoz oʻzbek adiblari tilida ushbu maʼnoda koʻpincha yasama soʻzning tarkibiy qismi, baʼzan esa mustaqil holda ishlatilgan. Masalan, Ogahiyning quyidagi baytida uning mustaqil holatda ishlatilganini koʻramiz:

***Bu na zulm ediki, raqib bazmida mayli aysh etasan mudom,
Gʻami furqating oʻti ichra bizga nasib soʻzu goʻdoz etib.
Demak, Alisher Navoiyning mashhur qitʼasidagi
Biri moʻjiz bayonligʻ sohiri Hind,
Ki ishq ahlin oʻrtagʻay soʻz-u holi***

baytida soʻzni har ikkala maʼnoda ham tushunish mumkin. Chunki, bu oʻrinda “oʻrtamoq” (yoqmoq) va “yonish” maʼnosidagi soʻz tanosub hosil qilgan.

Muhammad Rizo Ogahiy nazmiyotidagi soʻz soʻzining quyidagi maʼno qirralari koʻzga tashlanadi:

Nutq, gap.

***Man lol o'lub ko'rgan chog'i bir so'z xud aytolmog'um,
Bori san ahvolimni ul oshubi davronima ayt.***

So'z aytmoq – gapirmoq, so'zlamoq:

***Bazm aro chun ochti so'z ayturg'a jonon ikki lab,
Berdilar bir damda o'lgan jismima jon ikki lab.***

Ijod, badiiy ijod, she'rning, so'z san'ati mahsuli:

***Bo'lub karam tafakkur, Ogahiy, qil puxta so'zni kim,
So'zing'a so'z toparg'a ochmasun hech bir suxandon lab.***

E'tibor qaratsak, ikkinchi misradagi so'z topmoq birikmasini shoir iychom asosida ikki ma'noda ishlata olgan: 1. Javob aytmoq. 2. Nuqson topmoq, ayb topmoq, nuqsonli deb bilmoq. Hozirgi gap topmoq iborasi.

Muhokama. Endi diqqatimizni shu o'rinda boshqa bir jihatga qaratmoqchimiz. Baytning hozirgi shaklidan tugal fikr anglash qiyin, ya'ni grammatik jihatdan bayt tuzilishida xato bor. Albatta, Ogahiydek daho ijodkorda tilning umumiy qoidalaridan chekingan holat kuzatilmaydi. Bunday qilish, xususan, ulug' so'z san'atkorlari butun umr qarshi kurashgan illat. Shuning uchun nashr davomida juz'iy e'tiborsizlikdan kelib chiqqan degan xulosaga keldik. Sababi baytdagi "bo'lib qaram tafakkur" birikmasini "bo'lib garmi tafakkur" tarzida o'qish kerak. Chunki, birinchi holda umuman biror fikr anglashilmaydi. Ikkinchi holda esa "tafakkur bilan mashg'ul bo'lgan holda", "teran tafakkur qilgan holda" degan ma'noni beradi. Aslida "issiq" ma'nosini anglatgan garm so'zi izofiy holda "biror narsa bilan band bo'lish", "g'oyat mashg'ul bo'lish" ma'nosini beradi. Fors tilida "ish bilan bandman" mazmuni "sargarmi koram" tarzida namoyon bo'lishning sababi shu. Eng asosiysi, qo'lyozmada garm va karam so'zlari bir xil yoziladi. Chunki, kotiblar "kof" "ك" va "gof" "گ" harflarini odatda bir xil shaklda yozadilar. Eng muhimi bizning islohimizdan keyin bayt vazni o'z joyiga tushadi, xazaji musammanni solim holatga keladi.

Demak, shunga ko'ra, bayt mazmunini ikki xil talqin qilish mumkin bo'ladi: 1. Ogahiy, tafakkurga g'arq bo'lib, so'zingni puxta qilg'il, hech bir suxandon (so'z ustasi) so'zingdan nuqson topmasin. 2. Ogahiy, teran tafakkur bilan she'riyatingni shunday puxta qilg'il, unga hech bir so'z ustasi teng keladigan javob bera olmasin. Baytdagi "karm" so'zini garm ekanligini aynan "puxta" so'zining ham ishlatilayotgani yana bir bor asoslaydi. Chunki, lug'aviy jihatdan "issiq" ma'nosi garm va asl ma'nosi «pishiq» bo'lgan puxta so'zlari tanosub san'atini hasil qiladi. Bayt mazmuniga Ogahiyning boshqa bir g'azalidagi

***Ogahiy so'zin shirin o'yla qilg'il so'z ahli,
Davrada hujum etsun o'ylakim magas, yo rab, -
bayti ham hamohanglik kasb etadi.***

Quyidagi baytlarda uch o'rinda ishlatilgan so'z turli ma'no qirralari bilan namoyon bo'ladi:

***Hosidu xudbing'a tong yo'q nopisand o'lsa so'zim –
Kim, qachon odam so'zini aylagay shayton pisand...
Ogahiy so'zin ne tong qilsa bori olam qabul-
Kim, oni qilg'usi tahsin ko'rguzub sulton pisand.***

Ko'rinadiki, baytlardagi birinchi so'zni badiiy so'z, ikkinchisini maslahat, nasihat, uchinchisini badiiy ijod mahsuli deb talqin qilish mumkin.

Gapirish, takallum:

***Xirom aylarda-yu so'zlarda chun qaddu labin ko'rdim,
Qarorim oldi qaddu, ayladi aqlmni hayron lab.***

E'tibor qaratilsa, baytdagi so'zlarda so'zini ham ikki xil talqin qilish mumkin: 1. So'zlayotgan paytda. 2. So'zlar, gaplar. To'g'ri, undan oldin xirom aylarganda (xirom aylayotgan paytda) so'zining kelishi birinchi ma'noni taqozo qiladi. Lekin baytning grammatik qurilishi ikkinchi talqinni o'rta tashlashga monelik qilmaydi. Shoirning so'z qo'llash va uning turli qirralarini namoyon qilib, tovlanira olish mahorati ham shunda.

Fig'on-nola:

***Eshitkanlar so'zim kuysa, ne tongkim,
Ko'nguldin tushdi bu guftor aro o't.***

Bu baytda so'z so'zini "o't tushdi" fe'liga qarab yuqorida qayd etilgan har ikkala ma'noda ham talqin qilish mumkinday tuyulsa ham, baytda "eshitkanlar" kalimasining yetakchi bo'lib kelishi ikkinchi ma'no nazarda tutilmayotganini ko'rsatadi. Chunki, omonimlarning har ikkala ma'nosi ham nazarda tutilishi, ya'ni iychom hosil bo'lishi uchun shoir butun baytning grammatik qurilishini shunga mos tarzda tuzadi. Bu holat ham lingvopoetikada yetakchi vazifani til qonuniyatlariga tayanish ekanligini ko'rsatuvchi kichik bir faktdir.

Sir, inson ichidagi g'oyat shaxsiy his:

***Desang o'lmasun yoshurun so'zim agar ushbu olam ichida fosh,
Dema hargiz olida sirring ahli basharni mahrami roz etib.***

Ogahiy asarlarida salaf adiblar kabi so'z ma'nosida hadis ishlatilgan.

***Lablaridin so'z eshitkach tong emas hayronlig'im –
Kim, qilur hohir ikki yoqutdin gavhar hadis.
Gar tilim so'zdin qolib, yetsam o'larg'a yo'q ga'mim –
Kim, masihoyi labig'a keldi jonparvar hadis.
Mehridek ravshan iborat keldi so'zning zinati,
Yaxshidir mubham lug'atga bo'lmas munjur hadis.***

Ushbu g'azaldagi:

***Sof tab' elning so'zi ko'proq ko'ngillarni olur-
Kim, muassir bo'lgusi gar pok esa masdar hadis,***

ya'ni "sof ko'ngilli kishilarning so'zi xalq ko'nglini ko'proq oladi, chunki bu martabaga masdari – kelib chiqish o'rni pok bo'lgan so'zlarga muassar bo'ladi, baytiga e'tibor qaratsak. Bu yerda so'zning masdari – kelib chiqish o'rni deganda ko'ngil nazarda tutilayotgani aniq. Demak, zohiran didaktik mazmundagi bu baytda tilshunoslikning asosiy nazariy masalalaridan biri – til va tafakkur muammosi badiiy tarzda talqin qilinayotgani ma'lum bo'ladi. Ogahiyning ushbu bayti mazmuni, ta'bir joiz bo'lsa, Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da qayd etgan "so'z durreduurkim, aning daryosi ko'nguldir va ko'ngul mazharedurki (ta'kid bizniki – N.B.), jomi juzv va kullur" satrlariga mohiyatan tengdir.

Ogahiy g'azallarida "so'z" ma'nosini anglatu vchi o'zlashmalardan (asl turkiy "so'z"dan tashqari) "kalima", "kalom", "nutq", "nuqta", "nuqot", "lafz", "alfoz", "suxan" kabi muqobil lug'aviy birliklardan keng foydalangan. [8; 421-473-301 -333- b.]

1. "Kalom" va "kalima" – arabcha "so'z" va "nutq" ma'nosidagi lug'aviy birliklardir:

... Chu shakkarrez qilding har nafas shirin kalomingni,

Bori qushlar guruhi ichra bo'lding sarvar, ey to'ti... [9; 62- b.]

(...Ey to'ti, har bir kalomingni (so'zingni), har bir nafasingni shirin qilganing uchun, barcha qushlar ichida sardori bo'lding.)

Xalqimizda "Shirin so'z shakardan shirin" [10; 86- b.] degan maqol bor. To'tining ovozi shirin bo'lganligi uchun barchaga ma'qul bo'lib, qushlar ichida sardori bo'ldi. Behuzur aytilmagan "Shirin yuzingdan shirin so'zing a'lo" deb.

Tarahhum ko'rguzub mandin takkalumni darig' etma,

Ki, man bir xasta-u shirin kaloming ankabinimdur. [11; 188- b.]

Results

Bekorga el ichida "Bir tavakkal buzadi, ming qayg'uning qal'asini. Bir shirin so'z bitqazar, ming ko'ngilning yarasini" [12; 78- b.] deyilmaydi. Chunki shirin so'z xasta ko'ngulga malham bo'ladi, inson umrini uzoqlashtiradi, balki so'z inson qadrini yanada balandroqqa ko'taradi.

Ogahiy, nazm ila so'z kim nazm aro fazl ahliga

San kibi zohir kalomi jonfizo qilmoq g'alat... (I jild, 258-bet)

Majlisda Masihomu takroru kalom aylar,

Yo shisha ayon etgan qul-qulmi ekan oyo... (I jild, 87-bet.)

Ushbu misralarda "kalom" so'zi ham "nutq", "gap", "so'z" ma'nolarini ifodalagan.

1. Arabcha "nuqta" va "nuqot" ifodasi ham so'z tushunchasini anglatgan. Ogahiy ijodida ushbu so'zlardan ham keng foydalangan:

... Agar shirin so'zingdin dahr aro yuz ming shakar sochsang,

Oni zahr aylagay bir talh nuqta ahli g'iybatdin... (II jild, 20-bet.)

(G'iybatchilarning bir achchiq so'zi ko'ng'ilni og'ritib, el ichida gapirgan barcha shirin so'zlaringni zaharga aylantiradi).

Dono xalqimizda "Dorining achchig'i yaxshi, so'zining shirini" degan ibora bor. Darhaqiqat, achchiq va yomon so'z yurakda g'am va dog' qoldiradi. Shirin so'z esa qalbga malham bo'ladi.

Ushbu misralar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan olingan:

***Kishi so‘ksa, achchiq tutar ersa til
Suyakka urar nish, og‘ritar ko‘ngul,
Tayoq zarbasining izi tez o‘char,
Bu til zarbidan iz qolar necha yil, (Qutadg‘u bilig, 6-bet)
baytini esga soladi.***

***... Nazming durini, Ogahiy, bazl aylagil ancha,
Har kimda bo‘lsa nukta mavzunga ehtiyoj. (I jild, 139-bet.)***

(Agar kimki chiroyli, ravon, mazmunli so‘zga ehtiyoji ko‘p bo‘lsa, Ogahiy, nazm durini, shirin so‘zingni undan ayamagin)

***... Birovkim bersa gar amvotg‘a har nuktasi yuz jon,
O‘lub hasrat bila bo‘lg‘ay odam tufrog‘ida madfun...(II jild, 18-bet)
... Dedi ayni karamdin chehrayi zardim sari boqib,
Shakardek nukta birla lablarin shirin kalom aylab...(I jild, 106-bet)***

2. Arabcha “nutq” so‘zi “notiq” (so‘zlovchi) bilan bir asosda yasalgan. “Nutq” so‘zi ham “so‘z” tushunchasini ifodalaydi. “Suxan”, “suxandon” (suxan+don) so‘zga chechan, farosatli gaplarga usta, gapdon, notiq kabi ma’nolarni bildiradi. Ogahiy ushbu so‘zlardan keng foydalangan.

3.

***Garchi Iso nutqidin tong‘ay o‘luk jon lazzatin,
Lek jonparvar so‘zing yuz qotladur ondin laziz... (I jild, 161-bet.)***

(Yorning jonparvar so‘zi hatto Iso payg‘ambarning o‘likni tiriltiruvchi nutqidan ham ustundir)

***Roqiqun nutq bo‘lg‘il, ey ko‘ngul, qo‘y xush adoliqni-
Ki bulbul qadri yo‘qdur ahli dahr olida qo‘zg‘uncha... (I jild, 40-bet.)***

(Qo‘pol so‘zli bo‘lishni to‘xtat chunki, zamon ahllari uchun sayroqi bulbulning ham ovozi dag‘al bo‘lsa quzguncha qadri bo‘lmaydi).

***Nutqi ruhulloh o‘likni tirguzurda bo‘lmog‘oy,
La‘lidin taqrir topg‘on nuqtai shirin kibi...(I jild, 57-bet.)
Muhib gar Ogahiyg‘a bo‘lsa ul xublar shahi tong yo‘q-
Ki, husni nutq ila Mahmud mahbubi Ayoq o‘lmish... (I jild, 241-bet.)
Ketmish edi jon gavhari nutqin tilabon shukr,
Kim, ushbu gado ul labi durposhima yetti...(II jild, 69-bet.)
Tong emas nazm aylasam tun-kun farahafzo suxan –
Kim, yetar ondin base sho‘xi suxandonimg‘a xaz... (I jild, 263-bet.)***

(Tun-kun odamlarni xursand qiladigan so'zlar bilan ijod qilsam ajablanmang, yoringa huzur bag'ishlaydi)

**... Dur jilvasi dilkashdur gar huqqai la'l ichra,
Ermas labidin chiqqon dilxoh suxan yanglig'...(I jild, 27-bet.)**

(Yorning labidan chiqqan ko'ngilga yoquvchi shirin so'zi hatto dur va gavharning jilvasidan ortiqdir)

**... Qolg'onin so'zdin tilimning ayt go'yolig' bila,
Yuz qo'yub yoru ado fahmu suxandonim sari...(II jild, 75-bet.)**

Xulosa. Ogahiy mohir tilshunos sifatida nafaqat o'z tilini, balki arab va fors tillarini ham puxta bilgan. O'z asarlarida bu til elementlaridan mohirona foydalanib, ko'p va xo'b ijod qilgan.

Ogahiy g'azaliyotiga xos xususiyatlar teran ma'nolilik, mazmunning kuchliligi, har bir misra mukammal, yaxlit holda bir-birini to'ldirib, fikr ixchamlashib, g'azalning go'zal, mukammalligini ta'minlagan.

Adabiyotlar/Literatya/References:

1. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент, 1967. – Б.315.
2. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. Олти томлик. Биринчи том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б.392.
3. Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.759.
4. Абдулҳаким М. Бедил ва Огаҳий. // Жаннатмакон. 2010. №6
5. Йўлдошев Р. Қадимги туркий тил. – Урганч, 2005. – Б.165.
6. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – Б.168.
7. Абдусаматов М. Форс тили.– Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б.379.
8. Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.759.
9. Каримов. Қ. Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. Тўртликлар. Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. – Тошкент:. 1971. – Б.961.
10. Огаҳий. Асарлар. Олти жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.418.
11. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. Олти томлик. Биринчи том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б.392.
12. Мирзаев Т., Мусақулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. “Шарқ” нашриёти. – Тошкент: 2003. – Б.520.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).